



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 / ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30
8	TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI <i>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</i>	31
9	SHAXSIY SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI <i>Isayeva Xolbib Boboqulovna</i>	34
10	TIBBIY SUG'URTANING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI <i>Yusupov Akbar Haydarovich</i>	39
11	MOL-MULK SUG'URTASIDA RISKLARNI BAHOLASH VA ANDERRAYTING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tuxtarova Maftuna Yo'ldashboy qizi</i>	44
12	TURAR-JOY KO'CHMAS MULKINI GEDONIK MODELLASHTIRISHDA FUNKSIONAL SHAKL TANLOVI <i>Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o'g'li</i>	49
13	HUDUDIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	54
14	MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDIALASH TIZIMI SAMARADORLIGI <i>Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich</i>	57
15	O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY-INSTITUTSIONAL TAHLILI VA NATIJADORLIK MODEL (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) <i>Xudayberganov Soxibnazar Kimyanazarovich</i>	62
16	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI <i>Norkulov Shavkat Shakarbayevich</i>	66
17	STRATEGIK MOLIYAVIY HISOB TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI, KO'RSATKICHLARI VA USULLARI <i>Umarova Shaxlo Abduvaliyevna</i>	70
18	OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI <i>Adizov Bobir Baxtiyorovich</i>	77



OLIJ TA'LIM MUASSASALARI MOLYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI

Adizov Bobir Baxtiyorovich

PhD, dotsent, Buxoro davlat universiteti. Mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: adizov.b@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy va akademik mustaqillik sharoitida oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini kompleks baholashning uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda universitet faoliyatini faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki ta'lim sifati, ilmiy-innovatsion faoliyat va xalqaro raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini ham qamrab olgan integral yondashuv asosida baholash taklif etilgan. Moliyaviy barqarorlik (MB), ta'lim sifati (TS), ilmiy-innovatsion faoliyat (IIF) va xalqaro raqobatbardoshlik (XR)dan iborat to'rtta mezon normallashtirilib, vaznli yig'indisi orqali Integral samaradorlik indeksi (ISI) hisoblangan. Buxoro davlat universitetining 2022–2025-yillar ma'lumotlari asosida ISI 2022-yilda 0,327, 2023-yilda 0,369, 2024-yilda 0,619 va 2025-yilda 0,658 bo'lgan. Natijalar 2022–2023-yillarda past, 2024–2025-yillarda yuqori samaradorlik darajasini ko'rsatadi. Tadqiqotda 2025-yilda ilmiy-innovatsion faoliyat va moliyaviy barqarorlikning o'sishi umumiy indeksga ijobiy ta'sir qilgani, ta'lim sifati pasayish esa asosiy muammoli yo'nalishlardan biri bo'lib qolgani aniqlangan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, moliyaviy mustaqillik, akademik mustaqillik, moliyaviy barqarorlik, ta'lim sifati, ilmiy-innovatsion faoliyat, xalqaro raqobatbardoshlik, integral samaradorlik indeksi, ISI, universitet samaradorligi.

Abstract: The article examines the methodological foundations for a comprehensive assessment of the performance of higher education institutions under conditions of financial and academic autonomy. The study proposes an integrated approach to evaluating university performance that takes into account not only financial outcomes but also indicators of educational quality, research and innovation activity, and international competitiveness. Four criteria — financial sustainability (FS), quality of education (QE), research and innovation activity (RIA), and international competitiveness (IC) — were normalized, and the Integral Performance Index (IPI) was calculated using a weighted-sum method. Based on data from Bukhara State University for 2022–2025, the IPI values were 0.327 in 2022, 0.369 in 2023, 0.619 in 2024, and 0.658 in 2025. The results indicate a low level of performance in 2022–2023 and a high level of performance in 2024–2025. The study found that the growth of research and innovation activity and financial sustainability in 2025 had a positive impact on the overall index, while the decline in educational quality remained one of the main problematic areas.

Keywords: higher education, financial autonomy, academic autonomy, financial sustainability, quality of education, research and innovation activity, international competitiveness, Integral Performance Index, IPI, university performance.

Абстрактный: В статье исследованы методологические основы комплексной оценки эффективности деятельности высших образовательных учреждений в условиях финансовой и академической самостоятельности. В исследовании предложен интегральный подход к оценке деятельности университета, учитывающий не только финансовые результаты, но и показатели качества образования, научно-инновационной деятельности и международной конкурентоспособности. Четыре критерия — финансовая устойчивость (ФУ), качество образования (КО), научно-инновационная деятельность (НИД) и международная конкурентоспособность (МК) — были нормированы, а на их основе методом взвешенной суммы рассчитан Индекс интегральной эффективности (ИИЭ). По данным Бухарского государственного университета за 2022–2025 годы значение ИИЭ составило 0,327 в 2022 году, 0,369 в 2023 году, 0,619 в 2024 году и 0,658 в 2025 году. Результаты показывают низкий уровень эффективности в 2022–2023 годах и высокий уровень эффективности в 2024–2025 годах. Установлено, что в 2025 году рост научно-инновационной деятельности и финансовой устойчивости оказал положительное влияние на общий индекс, тогда как снижение качества образования осталось одним из основных проблемных направлений.

Ключевые слова: высшее образование, финансовая самостоятельность, академическая самостоятельность, финансовая устойчивость, качество образования, научно-инновационная деятельность, международная конкурентоспособность, индекс интегральной эффективности, ИИЭ, эффективность университета.

Kirish (Введение/Introduction).

Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy va institutsional mustaqilligini kengaytirish zamonaviy ta'lim siyosatida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Universitetga moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlashda, ta'lim dasturlarini takomillashtirishda, ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini belgilashda hamda tashqi hamkorlikni rivojlantirishda kengroq vakolatlar berilishi uning strategik boshqaruv imkoniyatlarini oshiradi. Biroq avtonomiyaning o'zi natija emas; uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi faqat aniq ko'rsatkichlar tizimi orqali muntazam baholanganda namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholashda moliyaviy natijalar, ta'lim sifati, ilmiy mahsuldorlik va xalqaro faoliyat o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Masalan, qo'shimcha daromadlarning ko'payishi moliyaviy imkoniyatlarni kengaytiradi, lekin agar bu resurslar ta'lim va ilmiy infratuzilmaga samarali yo'naltirilmasa, umumiy institutsional natija kutilgan darajada bo'lmaydigan bo'lishi mumkin. Xuddi shuningdek, maqolalar sonining o'sishi universitetning ilmiy salohiyatini ko'rsatsa-da, ularning

sifati, iqtiboslanishi, grantlar va innovatsion mahsulotlarga aylanishi ham muhim.

Shu nuqtai nazardan, universitet faoliyatini ko'p mezonli baholashga asoslangan integral indeks boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qulay vosita bo'lishi mumkin. Integral indeks turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlarni yagona shkalaga keltirib, ularning umumiy dinamikasini taqqoslash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning obyekti Buxoro davlat universitetining 2022–2025-yillardagi faoliyatidir. Tadqiqot predmeti esa universitetning moliyaviy, ta'lim, ilmiy-innovatsion va xalqaro faoliyatini integral baholash mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi Buxoro davlat universiteti misolida moliyaviy mustaqil OTM faoliyati samaradorligini to'rtta ustuvor mezon asosida baholash va ISI orqali umumiy natijadorlik darajasini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Universitetlar samaradorligini baholash masalasi strategik boshqaruv, natijaga asoslangan moliyalashtirish va reyting tizimlari bilan bog'liq holda keng o'rganilgan. Kaplan va Nortonning Balanced

Scorecard konsepsiyasi tashkilot natijalarini moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklamasdan, bir nechta strategik nuqtayi nazaridan baholash zarurligini asoslaydi [1]. Ushbu yondashuv oliy ta'limda ham foydalanilishi mumkin, chunki universitet bir vaqtning o'zida ta'lim, tadqiqot, jamiyat bilan hamkorlik va moliyaviy barqarorlik vazifalarini bajaradi.

Salmi dunyo darajasidagi universitetlarni shakllantirishda akademik salohiyat, boshqaruv avtonomiyasi va moliyaviy resurslarning mavjudligini muhim omillar sifatida ko'rsatadi [2]. Bu yondashuv moliyaviy mustaqillikni alohida moliyaviy ko'rsatkich emas, balki institutsional salohiyatning bir qismi sifatida qarash imkonini beradi.

Hazelkorn oliy ta'lim reytinglarining universitetlarning strategik xulq-atvoriga ta'sirini tahlil qilib, reyting ko'rsatkichlarining ilmiy natijalar, xalqaro faollik va institutsional obro' bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [3]. Bu esa xalqaro raqobatbardoshlikni integral baholashda alohida mezon sifatida kiritish zarurligini asoslaydi.

Dougherty va Reddy natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilib, universitet moliyasini natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lash samaradorlikni oshirish vositalaridan biri ekanini ko'rsatadi [4]. Biroq natijaga asoslangan yondashuvda ko'rsatkichlarning to'g'ri tanlanishi va ularning vaznlarini ilmiy asoslash muhim.

Mazkur tadqiqotning farqli jihati shundaki, universitet samaradorligi moliyaviy natijalar bilan cheklanmaydi; MB, TS, IIF va XR mezonlari yagona ISI ko'rsatkichiga birlashtiriladi. Shu tariqa universitet faoliyatining ichki va tashqi natijalarini bir vaqtda baholash imkoniyati paydo bo'ladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы/Methods).

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, normallashtirish, agregatlash va vaznli yig'indilar usullaridan foydalanildi. Empirik bazani Buxoro davlat universitetining 2022–2025-yillardagi moliyaviy, ta'lim, ilmiy-innovatsion va xalqaro faoliyatiga oid ma'lumotlar tashkil etdi.

Indikatorlar turli o'lchov birliklariga ega bo'lgani uchun ularni to'g'ridan-to'g'ri qo'shish metodologik jihatdan noto'g'ri bo'ladi. Shu sababli avval har bir ko'rsatkich 0–1 intervaliga normallashtirildi. Foydali yo'nalishdagi indikatorlar uchun $Z_i = (X_i - X_{min}) / (X_{max} - X_{min})$, xarajat yoki risk xususiyatiga ega indikatorlar uchun $Z_i = (X_{max} - X_i) / (X_{max} - X_{min})$ formulasi qo'llaniladi.

Mezonlarning integral qiymati unga kiruvchi normallashtirilgan indikatorlarning o'rtacha arifmetik qiymati orqali aniqlanadi. Moliyaviy barqarorlik $MB = \sum I_i / n$; ta'lim sifati $TS = \sum T_i / m$; ilmiy-innovatsion faoliyat $IIF = \sum N_i / k$; xalqaro raqobatbardoshlik $XR = \sum X_i / p$ ko'rinishida ifodalanadi.

Yakuniy ISI quyidagi formula asosida hisoblanadi: $ISI = 0,30MB + 0,30TS + 0,25IIF + 0,15XR$. Vaznlarning yig'indisi 1,00 ga teng. Moliyaviy barqarorlik va ta'lim sifatiga 0,30 dan, ilmiy-innovatsion faoliyatga 0,25 va xalqaro raqobatbardoshlikka 0,15 vazn berilgan.

Indeks natijalarini talqin qilish uchun 0,80–1,00 — juda yuqori; 0,60–0,79 — yuqori; 0,40–0,59 — o'rtacha; 0,20–0,39 — past; 0,00–0,19 — juda past samaradorlik darajasi sifatida qabul qilindi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Buxoro davlat universiteti faoliyatining mezonlar bo'yicha tahlili Moliyaviy barqarorlik universitetning mustaqillik sharoitida o'z strategik vazifalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash qobiliyatini ifodalaydi. Unda jami daromadlar, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar, o'z daromadlari, xarajatlarni qoplash darajasi va daromadlar diversifikatsiyasi kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro davlat universitetining jami daromadlari 2022-yilda 295,7 mlrd so'mdan 2025-yilda 465,4 mlrd so'mgacha oshgan. Bunday o'sish universitetning resurs bazasi kengayganini ko'rsatadi. Biroq moliyaviy barqarorlikni faqat daromad hajmi bilan baholash yetarli emas; daromadlarning manbalari va ulardan foydalanish samaradorligi ham hisobga olinishi lozim.

MB mezoni 2022-yilda 0,168 va 2023-yilda 0,083 bo'lgan. 2024-yilda mazkur ko'rsatkich 0,713, 2025-yilda esa 0,809 ga yetgan. Demak, tadqiqot davri oxirida moliyaviy barqarorlik universitetning eng kuchli mezonlaridan biriga aylangan.

Ta'lim sifati universitetning asosiy natijaviy funksiyasi hisoblanadi. Ushbu mezon professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, ta'lim natijalari, talabalarning akademik ko'rsatkichlari va bitiruvchilarning mehnat bozorida natijalari bilan tavsiflanadi.

TS 2022-yilda 0,620, 2023-yilda 0,605 va 2024-yilda 0,644 bo'lgan. 2025-yilda esa 0,393 gacha pasaygan. Demak, universitetda ayrim sifat indikatorlari yaxshilangan bo'lsa-da, umumiy normallashtirilgan natija ta'lim sifati bo'yicha muammoli dinamikani ko'rsatgan.

Ilmiy-innovatsion faoliyat mezoni 2022-yilda 0,167, 2023-yilda 0,422, 2024-yilda 0,569 va 2025-yilda 0,833 bo'lgan. Bu eng yuqori o'sish sur'atiga ega mezondir. Scopus/WoS maqolalari, grantlar, patentlar va ilmiy ishlanmalarning ko'payishi ushbu o'sishning muhim omillaridir.

Biroq ilmiy natijalarni iqtisodiy qiymatga aylantirish, ya'ni startaplar, litsenziyalari va tijoratlashtirish natijalarini ko'paytirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Ilmiy maqolalar sonining o'sishi innovatsion faoliyatning barcha jihatlarini yaxshilanganini avtomatik ravishda anglatmaydi.

Xalqaro raqobatbardoshlik 2022-yilda 0,326, 2023-yilda 0,379, 2024-yilda 0,463 va 2025-yilda 0,593 ni tashkil etgan. Xalqaro shartnomalar, xorijiy professorlar va akademik mobillik ko'rsatkichlarining o'sishi ushbu dinamikani qo'llab-quvvatlagan.

Shu bilan birga, xorijiy talabalarni jalb qilish natijalarini yanada yaxshilash talab etiladi. Universitetning xalqaro raqobatbardoshligi faqat hamkorlik shartnomalari soni bilan emas, balki xorijiy talabalar, qo'shma dasturlar, xalqaro grantlar va ta'lim eksportlari bilan ham baholanishi kerak.

1-jadval

Normallashtirilgan mezonlar va isi hisob-kitobi¹

Yil	MB	TS	IIF	XR	ISI	Baholash
2022	0,168	0,620	0,167	0,326	0,327	Past
2023	0,083	0,605	0,422	0,379	0,369	Past
2024	0,713	0,644	0,569	0,463	0,619	Yuqori
2025	0,809	0,393	0,833	0,593	0,658	Yuqori

Manba: muallif hisob-kitoblari.

2022-yil uchun ISI hisob-kitobi: $0,30 \times 0,168 + 0,30 \times 0,620 + 0,25 \times 0,167 + 0,15 \times 0,326 = 0,327$.

2023-yil uchun ISI hisob-kitobi: $0,30 \times 0,083 + 0,30 \times 0,605 + 0,25 \times 0,422 + 0,15 \times 0,379 = 0,369$.

2024-yil uchun ISI hisob-kitobi: $0,30 \times 0,713 + 0,30 \times 0,644 + 0,25 \times 0,569 + 0,15 \times 0,463 = 0,619$.

2025-yil uchun ISI hisob-kitobi: $0,30 \times 0,809 + 0,30 \times 0,393 + 0,25 \times 0,833 + 0,15 \times 0,593 = 0,658$.

2022-yildagi 0,327 qiymat past samaradorlik darajasini anglatadi. Mazkur davrda moliyaviy barqarorlik va ilmiy-innovatsion faoliyatning pastligi integral natijaga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2023-yilda ISI 0,369 gacha oshgan. Bunda IIFning 0,422 gacha ko'tarilishi ijobiy ta'sir qilgan, ammo MBning 0,083 darajasida qolishi umumiy indeksni yuqori kategoriyaga chiqarish uchun yetarli bo'lmagan.

2024-yilda ISI 0,619 ga yetgan va universitet yuqori samaradorlik toifasiga o'tgan. Bu yilda MB 0,713, TS 0,644 va IIF 0,569 bo'lib, to'rt mezonning barchasi 2023-yilga nisbatan yaxshilangan.

2025-yilda ISI 0,658 ga yetgan. Bu 2024-yilga nisbatan 0,039 punktga yoki taxminan 6,3 foizga o'sishdir. Ijobiy o'zgarishlarning asosiy manbalari MB=0,809 va IIF=0,833 bo'lgan. Biroq TS=0,393 natijasi indeksning yanada yuqori darajaga ko'tarilishini cheklagan.

Dinamik tahlil va natijalarni talqin qilish

2022–2025-yillar kesimida ISI dinamikasi universitet faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqich shakllanganini ko'rsatadi. 2022–2023-yillarda indeks 0,20–0,39 oralig'ida bo'lgan, 2024-yildan boshlab esa 0,60–0,79 oralig'iga ko'tarilgan.

Dinamik o'zgarishning eng muhim xususiyati 2024-yildagi keskin o'sishdir. Bu moliyaviy mezonning 0,083 dan 0,713 gacha va IIFning 0,422 dan 0,569 gacha o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, TS va XR ham ijobiy dinamika ko'rsatgan.

2025-yilda moliyaviy barqarorlik 0,809 ga yetgan va juda yuqori toifaga yaqinlashgan. Ilmiy-innovatsion faoliyat 0,833 bo'lib, alohida mezon sifatida juda yuqori darajani ifodalaydi. Bu ikki natija universitetning resurs va ilmiy salohiyati kuchayganini ko'rsatadi.

Biroq integral baholashning afzalligi shundaki, yuqori natijaga ega mezonlar boshqa yo'nalishlardagi pasayishni yashirib yubormaydi. Masalan, 2025-yilda TSning 0,393 bo'lishi ta'lim natijalarini yaxshilash uchun aniq maqsadli choralar zarurligini ko'rsatadi.

Universitet strategiyasida ISIni yillik monitoring indikatori sifatida qo'llash mumkin. Bunda faqat indeksning umumiy qiymati emas, balki uning tarkibiy mezonlari bo'yicha o'zgarishlar ham tahlil qilinishi kerak.

Muhokama

Tadqiqot natijalari universitet avtonomiyasi samaradorligini baholashda moliyaviy natijalarning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Moliyaviy resurslar ko'payishi universitetga qo'shimcha imkoniyat yaratadi, ammo uning ijtimoiy va akademik natijalarga aylanishi boshqaruv qarorlarining sifatiga bog'liq.

Moliyaviy barqarorlik va ilmiy-innovatsion faoliyatdagi yuqori natijalarni ta'lim sifati bilan mustahkamlash universitetning uzoq muddatli raqobatbardoshligi uchun muhim. Shuning uchun moliyaviy

¹ Muallif ishlanmasi

mustaqillikni strategik rejalashtirish va natijaga asoslangan byudjetlashtirish bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Ilmiy-innovatsion faoliyat bo'yicha o'sish universitetda ilmiy salohiyatni rivojlantirish uchun yaxshi asos borligini ko'rsatadi. Keyingi bosqichda maqolalar soni bilan bir qatorda iqtiboslar, xalqaro hammualliflik, patentlarni tijoratlashtirish, startaplar va grant daromadlarini alohida nazorat qilish zarur.

Xalqaro raqobatbardoshlik bo'yicha ham institutsional aloqalar kengaygan. Biroq xalqaro hamkorlikning sifat ko'rsatkichlari — qo'shma ta'lim dasturlari, qo'shma ilmiy loyihalar, xorijiy talabalar va professorlar ulushi — kelgusida alohida KPI sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ushbu yondashuv universitet rahbariyatiga resurslarni qaysi yo'nalishga qayta taqsimlash kerakligini aniqlashda yordam beradi. Masalan, 2025-yil natijasi ta'lim sifati mezonini ustuvor takomillashtirish zarurligini aniq ko'rsatmoqda.

Amaliy takliflar

Birinchidan, universitetda ISIni yillik strategik monitoring tizimiga kiritish va har bir mezon bo'yicha maqsadli qiymatlarni belgilash tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, ta'lim sifati bo'yicha bitiruvchilarning ishga joylashishi, ish beruvchilar qoniqishi, ta'lim dasturlarining akkreditatsiya natijalari va talabalarning akademik natijalarini birlashtiruvchi KPI tizimini kuchaytirish zarur.

Uchinchidan, ilmiy-innovatsion faoliyatda maqolalar sonidan tashqari iqtiboslanish, Q1–Q2 jurnallar ulushi, grant mablag'lari, patentlar va tijoratlashtirilgan ishlanmalarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish uchun xorijiy talabalarni jalb qilish, qo'shma ta'lim dasturlari va xalqaro grantlar bo'yicha aniq yillik rejalar ishlab chiqish zarur.

Beshinchidan, moliyaviy barqarorlikda daromadlar diversifikatsiyasiga e'tibor qaratish, ya'ni ta'lim xizmatlari, ilmiy grantlar, konsalting, malaka oshirish va boshqa qonuniy daromad manbalarining ulushini muvozanatli oshirish kerak.

Oltinchidan, ISI natijalari bo'yicha har yili ichki audit va strategik sessiya o'tkazib, past natija bergan mezonlar uchun tuzatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari moliyaviy mustaqil oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kompleks baholash uchun integral yondashuvdan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyatini ko'rsatdi. Buxoro davlat universiteti misolida moliyaviy barqarorlik, ta'lim sifati, ilmiy-innovatsion faoliyat va xalqaro raqobatbardoshlik mezonlari yagona ISI ko'rsatkichiga birlashtirildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, ISI 2022-yilda 0,327, 2023-yilda 0,369, 2024-yilda 0,619 va 2025-yilda 0,658 ni tashkil etdi. Bu 2022–2023-yillarda past, 2024–2025-yillarda yuqori samaradorlik darajasi shakllanganini anglatadi.

2025-yilda MB va IIF mezonlarining yuqori darajaga chiqishi universitetning moliyaviy va ilmiy salohiyati kuchayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, TSning 0,393 gacha pasayishi ta'lim sifati va bitiruvchilar natijalarini yaxshilashni ustuvor vazifaga aylantiradi.

Taklif etilgan ISI modeli universitetning turli yo'nalishlarini yagona shkalada baholash, yillar bo'yicha dinamikani kuzatish va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslash imkonini beradi. Kelgusida model vazn koeffitsiyentlarini ekspert baholash, statistik testlar va sezgirlik tahlili bilan yanada takomillashtirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press, 1996. 336 p.
2. Salmi J. The Challenge of Establishing World-Class Universities. Washington, DC: World Bank, 2009. 112 p.
3. Hazelkorn E. Rankings and the Reshaping of Higher Education. 2nd ed. London: Palgrave Macmillan, 2015. 304 p.
4. Dougherty K. J., Reddy V. Performance Funding for Higher Education. ASHE Higher Education Report. San Francisco: Jossey-Bass, 2013. 128 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim muassasalariga akademik, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini kengaytirishga oid qaror va farmonlari.
6. Buxoro davlat universitetining 2022–2025 yillardagi moliyaviy, ta'lim, ilmiy-innovatsion va xalqaro faoliyati bo'yicha hisobot ma'lumotlari.
7. Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan ma'lumotlar.